


TASDIQLAYMAN

“UMS” MChJ

ma'muriy direktori

M.R. Kamalidinov



2026-yil "02" -

04

“UMS” MChJning Ma'muriy departamenti  
farroshlari uchun maxsus kiyimlarini xarid qilish bo'yicha  
**TEXNIK TOPSHIRIQ**

“Universal Mobile Systems” MChJ ehtiyojlari uchun

Toshkent sh.

## 1. Umumiy ma'lumotlar

**1.1.** Farroshning ishlab chiqarish, texnik, sanitariya-maishiy xonalarda va shu kabi boshqa joylarda tozalash ishlarini bajarishi ustki kiyimning ifloslanishi bilan bog'liq bo'lib, noqulay sharoitlarda (harorat, atmosfera, fizik va h.k.) ham amalga oshirilishi mumkin.

Noqulay mehnat sharoitlarida ishlovchi xodimlar "Pochta va telekommunikatsiya xodimlariga maxsus kiyim, maxsus poyabzal va boshqa shaxsiy himoya vositalarini bepul berishning namunaviy me'yorlari"ga muvofiq maxsus kiyim va shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlanishi lozim.

**1.2. Tovarni xarid qilishdan maqsad:** "UMS" MChJ obyektlarida noqulay mehnat sharoitlarida band bo'lgan xodimlarning xavfsizligini ta'minlash uchun mehnatni muhofaza qilish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablarini bajarish.

**1.3. Yangilik haqida ma'lumot:** tovar yangi, avval foydalanilmagan bo'lishi, ishlab chiqarilgan yili: 2026-yildan oldin bo'lmasligi kerak.

**1.4. Talab etiladigan miqdor:** 58 ta xalat va shim komplekti.

**2. Yetkazib berishga oid talablar:** Tovar ishlab chiqaruvchining butun (shikastlanmagan) o'ramida, mahsulotda o'lchami ko'rsatilgan holda yetkazib berilishi hamda tashish, yuklash va omborda uzoq muddat saqlashda uning butligi ta'minlanishi lozim. O'lchamlar qatori amaldagi standartlarga va Buyurtmachining o'lchamlariga mos kelishi kerak. Tovarni yetkazib berish Yetkazib beruvchining kuchi va mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

**2.1. Yetkazib berish manzili:** Toshkent sh., Farg'ona yo'li ko'ch., 15-uy manzilida joylashgan "UMS" MChJ omboriga.

## 3. Maxsus kiyim – shim va xalatga (komplekt) qo'yiladigan talablar:

Maxsus kiyim – shimli xalat – umumiy ishlab chiqarishdagi ifloslanishlar va mexanik ta'sirlardan himoya qilish uchun mo'ljallangan. Ushbu maxsus kiyim – shimli xalat barcha mavsumda foydalaniladi.

**3.1.** Maxsus kiyim maksimal darajada qulay, sifatli, choklari pishiq, buyurtma qilingan o'lcham va bo'yga mos kelishi kerak. O'lchamlar va soni *1-jadvalda* keltirilgan:

### *1-jadval*

O'lchamlar	46	48	50	52	54	56	58	60	62
To'plamlar soni	3	8	8	14	5	10	5	2	3

**3.2. Logotip:** xalatning old koketkasida, chap tomonda, o'lchami 2 sm (balandligi) x 10 sm, harflari qizil rangda bo'lishi kerak.

# mobiuз

**3.3. Maxsus kiyim tikiladigan mato:** tarkibi 35% paxta, 65% poliefir bo'lgan aralash matodan, zichligi: 120 gr/m<sup>2</sup>, yeyilishga chidamli, kam g'ijimlanadigan va havo o'tkazadigan bo'lishi lozim. Mato rangi shartnoma imzolanishi vaqtida buyurtmachi bilan kelishiladi. Mato uzoq muddat foydalanilganda va yuvilganda o'zining dastlabki rangi, shakli va o'lchamini saqlab qolishi kerak.

**3.4. Xalatda:** old qismida andazalar, pastda, son qismida 18 sm x 20 sm o'lchamli 2 ta chuqur ustki cho'ntak bo'lishi kerak.

**Xalat uzunligi:** tizzagacha (taxminan 1,10 m).

**Taqilmasi:** tugmali.

**Yenglari:** uzun, qo'lni bemaolol bukish imkonini berishi kerak.

**Yoqasi:** tik yoqa.

Cho'ntaklari va yeng manjetlarida oq mag'iz bo'lishi kerak.

**3.5. Shim:** tor bo'lmasligi, beli rezinkali bo'lishi kerak.

**5. Maxsus kiyim uchun kafolat:** 6 oy.

## Ishlab chiqildi:

MMFG katta mutaxassisi



F.M. Xakimov

## Kelishildi:

MFHQG rahbari



B.F. Ubaydullayev